

Termiz shahrida profilaktik tadbirlar davom etmoqda



Termiz shahrida profilaktik tadbirlar davom etmoqda

Termiz shahar hokimligi tomonidan tuzilgan ishchi guruh shahrimizda karantin qoidalariga amal qilish holatlari yuzasidan profilaktik ishlarni amalga oshirmoqda. Bugun, 14 iyul kuni shahar tibbiyot birlashmasi, shahar sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi, shahar ichki ishlar bo'limi hamkorlikda korxonalar, tashkilot va tadbirkorlik subektlarida karantin qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha ogohlantirish, tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib bordi. Ishchi guruh targ'ibot ishlarini davom ettirmoqda.